

## TALABALARDA VATANPARVARLIKNI RIVOJLANTIRISHNING ANA'NAVIY VA ZAMONAVIY USULLARI

**Ibragimov Muslim Artikmashrabovich**

*Namangan davlat universiteti erkin tadqiqotchisi*

**Annotation:** *Ushbu maqolada jismoniy tarbiya o'qituvchilarining vatanparvarlikni rivojlantirishning ana'naviy va zamonaviy usullari dolzarbli haqidagi fikrlar xususida so'z yuritiladi.*

**Kalit so'zlar:** *ana'naviy, zamonaviy, vatanparvarlik*

Mamlakatimizda 3-renessans taraqqiyot davrida ta'lif-tarbiyaga oid ko'plab islohotlar amalga oshirilmoqda. Mazkur islohotlar jamiyatning barcha sohalarini qamrab olganligi bilan ajralib turadi. Bo'lajak jismoniy-tarbiya o'qituvchilarida vatanparvarlikni rivojlantirishda agar sog'lom kuchlar to'g'ri yo'lga boshlamasa g'arazli niyatlar bilan yurgan buzg'unchi kuchlar o'z ortidan ergashtirib ketadi. Bo'lajak jismoniy-tarbiya o'qituvchilarida vatanparvarlikni rivojlantirishda ularni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash tizimini takomillashtirishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini tahlil va tadqiq etishdan avval vatanparvarlik tushunchasining mazmun-mohiyatini olib berish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Pedagogik jarayonda talabalarda vatanparvarlikni, muhabbat tuyg'usi chinakam e'tiqodga aylanishi uchun ularda tarixiy shaxslarni vatanparvarligi, vatan oldidagi qahramonligi o'rgatish, psixologik ta'sir ko'rsatib mardlik va jasorat sifatlarini rivojlantirish mumkin. Misol uchun, Shayx Najmuddin Kubro boshchiligidagi xalq birlashib lashkar tuzib, Urganch mudofaasi uchun birlashadi.


Najmuddin Kubroning iltijo bilan "Yo Vatan, yo sharofatli o'lim" deb aytgan xitobi rahnamoligida har bir mahalla, ko'cha-ko'y, guzar-u rasta, masjid-u madrasa va har bir xonodon janggohga aylanadi. Chingizxon Najmuddin Kubroga ahli a'yonlari, barcha yor-u do'stlari bilan shahar tashqarisiga chiqib, jon saqlashni taklif etgan. Ammo shayx Chingizxon taklifini rad qilib, "shu tuproqda tug'ilibmiz, shu tuproqda o'lamiz!" degan ekan. Oqibat son jihatidan teng bo'lmagan dushman bilan olib borilgan shiddatli jangda og'ir yaralangan Najmuddin Kubro o'lim oldida tig' tutgan mo'g'ul sarboziga tashlanib, qahramonlarcha halok bo'ladi. Jangchi mo'gullar jonsiz shayx qo'lidan bayroqni tortib ololmaganlar. Bu orqali biz har bir inson o'z vatani uchun jonini fido qilishga ham tayyor turishligini ko'rsatadi.

Vatanning kuch-qudrati, sog'lomligi, yengilmasligi, e'tiqodi, jismoniy salomatligi yoshlarimizning vatanparvarligi bilan bog'liqdir. Amir Temur bobomiz armiya tuzishda masalaning bu tomoniga katta e'tibor qaratganlar: «CHerik (qo'shin, harbiy tuzilma) tuzib, navkar olmoqda uch qoidaga amal qildim: birinchidan – yigitning kuch-quvvatiga; ikkinchidan – qilichni o'ynata olishiga; uchinchidan – aql-zakovati-yu, kamolotiga. SHu uch fazilat jamuljam bo'lsa, navkarlik xizmatiga oldim. Negakim, kuch-qudratli yigit har qanday qiyinchiliklarga, azob-uqubatlarga chidamli bo'ladi, qilich o'ynata oladigan kishi raqibini

mag'lub eta oladi, oqil navkar har joyda aql-idrokini ishga solib, mushkulotni bartaraf etmog'i mumkin».

O'zbek xalqi ma'naviy-axloqiy merosida vatanparvarlik g'oyalarining ahamiyatini tadqiq etgan olim K.Usmonov tahlillariga ko'ra, vatanparvarlik yuksak axloqiylikni namoyon etadigan tuyg'u bo'lib, uning mazmuni vatanga mehr qo'yish, vatanni himoya qilish, uning havfsizligi va yaxlitligini ta'minlashga bevosita va bilvosita mas'ullik orqali mustahkamlanadi. Shuning uchun ham chinakam harbiy vatanparvarlik o'zidan oilani, oiladan Vatanni, Vatandan insoniyatni ustun qo'yishi talab etadi. Ushbu olimlar fazilatning muhim jihat shundaki, undagi hissiyotlar tor vatanparvarlik doirasiga sig'maydi, undan «chetga chiqadi». Vatanparvarlik faqat Vatanni sevish yoki yaxshi ko'rish bilan cheklanmaydi, balki bor kuchi va aql-idrokini Vatanni himoya qilish bilan bog'liq muammolarni hal etishga safarbar qilishda namoyon bo'ladi.

Umuman olganda, vatanparvarlikning mazmun-mohiyati shu ta'rifda mujassam bo'lganga o'xshaydi. Biroq fuqaro vatanparvarligi – huquqiy madaniyat va qonunga itoatkorlik haqidagi bilimlar tizimi bo'lib, jamiyat va davlatdagi siyosiy-huquqiy hodisalarayonlarning yangiligini baholash, fuqarolik pozitsiyasiga egalik, xalqiga xizmatda doimo tayyor turish va konstitutsiyaviy burchini bajarishdan iborat» ligi ta'kidlanadi.



–Bo'lajak jismoniy-tarbiya o'qituvchilarida vatanparvarlikni rivojlantirishda O'zbekistonni himoya qilishga tayyorlashni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan;

–vatanparvarlik asosini O'zbekiston Qurolli Kuchlarining udumlari tashkil etadi, vatanparvarlik tarbiyasi asosini esa harbiy udum bilan bir qatorda mehnat udumlari tashkil qiladi, bunda esa jismoniy tayyorgarlik zarur;

vatanparvarlik tarbiyasi O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlariga nisbatan hurmat va g'ururlanish, harbiy xizmatchi bo'lishga xohish va intilish hamda qo'lida qurol bilan mustaqil Vatanni himoya qilish hissini uyg'otadi. Vatanparvarlik tarbiyasi esa Vataniga sodiqlik, O'zbekiston fuqarosi o'z davlatining buyukligini, kuchlilagini mustahkamlash,

mustaqilligini himoya qilish hissini rivojlantiradi. SHuningdek, bo'lajak jismoniy-tarbiya o'qituvchilarida vatanparvarlikni rivojlantirishda milliy iftixor tuyg'usining kuchliligi, ularning ma'naviy kamolotga bo'lgan ehtiyojlarini mustahkamligini va barqarorligini ta'minlashi ko'rsatib o'tiladi. Shuningdek «Vatanparvarlik tarbiyasi davlat organlari, jamoat birlashmalari va tashkilotlarining talabalarda yuksak vatanparvarlik ongi, o'z vataniga sodiqlik hissi, fuqarolik burchini bajarishga, uning manfaatlarini himoya qilishga tayyorgarlikni shakllantirish bo'yicha rejali, tizimli, maqsadga yo'naltirilgan va uyg'unlashgan faoliyatdir». Biroq, vatanparvarlikni tarbiya sub'ektlari nuqtai nazaridan yanada kengroq talqin etish mumkin. Zero, bugungi kunda vatanparvarlik tarbiyasi bevosita jismoniy jixatdan sog'lom bo'lishi, davlat organlari va jamoat tashkilotlari orqali amalga oshsada, oila, mahalla va ta'lim muassasasi vatanparvarlik tarbiyasini bilvosita amalga oshirishga mas'ul hisoblanadi.

Bo'lajak jismoniy-tarbiya o'qituvchilarida vatanparvarlikni yanada yaqqolroq tasavvur qilishda kundalik faoliyatning axloqiy qadriyatlarini tahlil qilish lozim. Bunday fazilatlar qatoriga vatanparvarlik, burch, mas'uliyat, harbiy sha'ni, g'urur, insonparvarlik, mehribonlik, birodarlik, e'tiqodlilik, oljanoblik, qat'iyatlilik, fidoyilik, vijdonlilik, ijrochilik, mas'ullik, mustaqillik, itoatkorlik, jonbozlik, beg'arazlik, batartiblik, haqqoniylilik, professionalizm, odillik, onglilik, mehnatsevarlik, samimiylilik kabi ijobiy jihatlar kiradi.

Bugungi kunda talabalarda vatanparvarlik sifatlarini shakllantirishdagi kuchli ijtimoiy pedagogik ta'sir ularning kuchli va mard ajdodlari borligiga ishontirish hamda ularda tarixiy xotirani shakllantirish bilan chambarchas bog'liq. Misol uchun, Spitamen, Jaloliddin Manguberdi, Najmiddin Kubro, Temur Malik, Amir Temur, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi bobokalonlarimizning vatanparvarligini axloqiy ideal sifatida ulug'lash, ularning vatanparvarlik fazilati bilan bog'liq axloqiy qarashlari va hayotiy faoliyatları aks etgan manbalarni chuqurroq tahlil qilish yoshlarda harbiy vatanparvarlikni yanada yuksaltirishga xizmat qiladi.

Talabalarni vatan himoyasiga tayyorlash ishlaringning tubdan o'zgarishi vatanparvarlik tarbiyasining mazmuni, shuningdek, tashkiliy-uslubiy jihatlardan to'liq foydalanishni taqozo etadi. Buning uchun, tarbiyaviy tadbirlarning samaradorligini tahlil qilish, an'anaviy tarbiya shakllarini tanlash va mustaxkamlash zarur. Hozirgi sharoitda vatanparvarlik tarbiyasi vazifalarini to'la amalga oshira oladigan yangi shakl va uslublarni izlash va ularni hayotga tadbiq etish lozim. Bunda asosiy e'tiborni vatanparvarlik tarbiyasining shakl va uslublarini tashkiliy jihatdan ta'sirchanligiga yo'naltirilganligiga qaratish zarur. Yoshlar har qanday davlat yoki jamiyat rivojining kafolati hisoblanadi. Sababi – qaysi davlat yoki jamiyat yoshlar salohiyatining yuksalishiga yetarli imkoniyat yaratib, undan to'g'ri foydalana olsa, bunday davlatning istiqboli porloq bo'ladi.

Jamiyat va davlatning dinamik o'zgarishiga ta'sir etuvchi muhim ijtimoiy qatlam sanalmish yoshlarga islohotlarning maqsadini o'rgatish muhim. CHunki yoshlar o'zlarining qarashlari, qiziqishlari, qadriyat va manfaatlari orqali jamiyatdagi o'zgarish hamda islohotlarni anglab, idrok etib, unda bevosita qatnashishga tayyor bo'lib boradi. Yoshlarning hayotiy pozitsiyasi va uning ijtimoiy qiyofasining qandayligi bevosita davlat yoki jamiyat

taraqqiyotiga bog'liq bo'lsa, yoshlarning vatanparvarligi, harakatchanligi, dunyoqarashi va axloqiy barkamolligining shakllanishi esa xalq, mamlakat taqdirini belgilaydi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Abdurasulov O.A., Nazarov A.S. Yoshlar ma'naviyati shakllanishida harbiy vatanparvarlik tarbiyasining roli // Milliy istiqlol g'oyasi va armiya. Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari. – Toshkent, 2004.
2. Yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda ma'naviy-axloqiy merosning o'rni / Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami. 2015 yil, 28 aprel.
3. Maxammadjon o'g'li Y.B. Sharq uyg'onish (renessans) davri adabiyoti //Scientific Impulse. – 2022. – T. 1. – №. 5. – C. 1891-1895.
4. Otamurodov S. Vatanparvarlik – milliy o'zlikni anglash mezoni / Milliy istiqlol g'oyasi va armiya. Respublika ilmiy-amaliy anjumanining materiallari. – Toshkent: 2004.
5. Maxammadjon o'g'li Y.B., Odilxonovich SH.Q., Maxammadsidiqovna X.M. O'quvchilarga ingliz tilini o'rgatishning samarali usullari //Scientific Impulse. – 2023. – T. 1. – №. 7. – C. 340-342.
6. Nuritdinovna, N.M. (2022). bola shaxsining shakllanishida psixologning o'rni. ta'lim va rivojlanish tahlili onlayn ilmiy jurnali, 2(4), 61-63.
7. Toshlonov T. Talabalar dunyoqarashini milliy istiqlol g'oyasi asosida shakllantirish (yutuq va muammolar) // Ijtimoiy fikr-inson huquqlari. – Toshkent, 2004.
9. Temur tuzuklari. T.: "sharq" nashriyoti 2017. B. 56-58.
10. O'sarova F.X. Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda yurt tinchligi g'oyasining o'rni; // Milliy istiqlol g'oyasi va armiya. Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari. – Toshkent, 2004.